



Key issues of the education system in the globalization period

Mukhlisakhon ABDUJALILOVA¹

Kokand State Pedagogical Institute

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2024
Received in revised form
15 May 2024
Accepted 15 June 2024
Available online
25 June 2024

Keywords:

globalization process,
education system,
modern humanity,
development,
value,
global citizen,
spirituality,
education,
family,
reform.

ABSTRACT

The article examines the essence and key goals of reforming the education system in the context of globalization. Particular attention is paid to analyzing the need to make changes to adapt to global educational trends and preserve national spiritual values. Both challenges and opportunities arising in the process of integrating global educational practices are discussed.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss3-pp76-81>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Globallashuv davrida ta'lim tizimining dolzarb masalalari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

globallashuv jarayoni,
ta'lim tizimi,
zamonaviy insoniyat,
taraqqiyot,
qadriyat,
global fuqaro,
ma'naviyat,
tarbiya,
oila,
islohot.

Maqolada globallashuv darida ta'lim tizimiga kiritishi zarur bo'lgan o'zgartirishlarning mohiyati, maqsad va vazifalariga to'xtalib o'tiladi. Ushbu jarayonda ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolish bilan bir qatorda ta'lim tizimida ham bir qator o'zgartirishlarni amalga oshirish zarurligi bilan bog'liq masalalar yoritib beriladi.

¹ Teacher, Kokand State Pedagogical Institute. E-mail: sh.shomurotov7707@gmail.com

Ключевые вопросы системы образования в период глобализации

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

процесс глобализации,
система образования,
современное
человечество,
развитие,
ценности,
гражданин мира,
духовность,
образование,
семья,
реформа.

В статье исследуется сущность и ключевые цели реформирования системы образования в контексте глобализации. Особое внимание уделено анализу необходимости внесения изменений для адаптации к мировым образовательным трендам и сохранению национальных духовных ценностей. Обсуждаются как вызовы, так и возможности, возникающие в процессе интеграции глобальных образовательных практик.

Bugungi kunda ta'lim tizimi va uning ajralmas atributi bo'lgan fan ham globallashuvda muhim o'rin egallab bormoqda. Oliy ta'lim global tarmoqning bir qismiga aylanib qolishi o'z navbatida o'zining territoriyasida faoliyat yuritadigan va markaziy o'rinni tashkil etadigan an'anaviy universitetlarning rivojlanishi bilan bog'liqdir.

O'zbekiston tajribasi ham uzuluksiz ta'lim tizimini joriy etar ekan insonning butun hayotida ta'lim olishi haqidagi g'oyalarni ilgari surgan. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta'lim to'g'risidagi qonun va ularda ilgari surilgan ta'lim bosqichlari ham buni isbotlaydi.

Endilikda universitetlar faqat bilim berish maskani bo'libgina qolmaydi, ularda aholining turli sohalaridagi ma'lumotlarini oshirishga xizmat qiladigan va turli strukturadagi tadbirkorlik faoliyatiga maslahat beradigan firma filiallari ham tashkil etilmoqda. Universitetlar o'zlarining turli xizmatlarini birlashtiradigan tarmoqlar tashkil etishlari zarur.

An'anaviy ta'lim va an'anaviy oliy o'quv yurtlari bugungi dunyodagi mavjud qashshoqlik va boylik, ekologik muammolar, xalqaro jinoyatchilik, kishilarning bir-biridan begonlashuvi kabi global muammolarni yakka o'zi hal qila olmaydi. "E.Giddensning fikricha, Xitoyda ta'lim darajasini zamon talablariga yetkazish uchun, ellik yil yalpi ishlab chiqarishning 2%ni sarflash lozim ekan, bu xisob yalpi ishlab chiqarishning o'sishi har yil o'rta xisobda 10% dan oshib borayotgan mamlakat haqida boryapti. Bu xisob esa bugungi rivojlangan mamlakatlar simsiz axborot tizimini o'rnatish orqaligina jahon ta'lim tizimini rivojlantirish mumkinligini isbotlaydi."

Globallashuv tufayli insoniyat faoliyatida, uning turmush tarzida va avvallari turli – tuman bo'lgan uning madaniyatida yangi, jahon standartlari paydo bo'ldi. "Zamonaviy insoniyat millatidan qat'iy nazar bolaligidan bir hil o'quvchilar televezion dasturlarini, o'smirlik va yoshlik davrida bir hil musiqiy kliplarni, o'rta yoshda esa bir hil seriallarni tomosha qiladi. Odamlar bir hil yangiliklarni o'xshash sharxlar bilan tinglaydilar, kiyim-kechakda bir hil urfga amal qilib kiyinadilar, bir hil fast-fudlar bilan ovqatlanadilar, bir hil tilda gapirishga xarakat qiladilar, bir hil jixozlangan ofislarda ishlaydilar. Buning oqibatida yangi turkum "global fuqaro" ya'ni qarashlari, qiziqishlari va maqsadlari bir hil odamlar paydo bo'lishi mumkin. Ma'lumotlarga ko'ra XXI asrga kelib 6 mingta til iste'moldan chiqib ketadi." Insoniyat madaniyatining xilma-xilligi, uning milliy qadriyatlari, urf-odat va an'analari, milliy ahloqiy tamoyillari yo'qolish arafasida turibdi.

Jamiyatining bosh bo'g'ini bo'lgan oilaning asosi, demakki jamiyatning asosi yuqoridagi qadriyatlarga tayanadi va shular tufayli yashaydi. Hozirda har birimiz bularning bir qismini yo'qolganiga guvoh bo'lib turibmiz.

Iqtisodiy, texnologik va ilmiy taraqqiyot jamiyat ma'naviy taraqqiyotidan ko'ra tezlashib ketdi. Internetdan foydalanayotgan "global fuqaro"ning yashashdan maqsadi, zamonaviy avtomobil, yaxshi uy-joy, qimmatbaxo jixozlar va dunyoni sayohat qilishdan iborat. Avvallari bolalikdan inson ongiga singdiriladigan mehr-oqibat, odob-ahloq, yaxshilik, go'zallik, adabiyot, san'at, diniy ahloq bergan ma'naviy boyliklarni global madaniyat bera oladimi, zamonaviy odam jamiyatdagi ma'naviy talablarga javob bera oladimi? Bugungi oliy ta'lim ma'naviy boyliklarni saqlab qolish va targ'ib qilishni jamiyat miqyosida ishlab chiqishga xarakat qilishi kerak. Mazkur muammo O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti tomonidan mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq, mamlakatimiz hayoti uchun eng muhim masala sifatida kun tartibiga qo'yildi. I. Karimovning deyarli barcha asarlarida ma'naviyatni saqlab qolish va rivojlantirish masalalariga to'xtalib o'tilgan. Mazkur sohadagi ishlarni boshqarish va amalga oshirish bo'yicha bir qancha tashkilot va muassasalar tuzildi va ular faoliyat olib bormoqda. "Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, qayerdagi beparvolik va loqaydlik xukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zbo'larchilikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha – qayerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur xukumron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi."

Bugungi ming yillik talablarining eng muhimlaridan biri, olimlarning fikriga ko'ra, zamon talablari asosida jamiyatning ma'naviy qiyofasini belgilovchi inson hayotining maqsadi va mazmuni masalasini ishlab chiqish va yaratish lozim. Hozirgi tez o'zgaruvchan hayotda bu muammoni yagona yechimi barcha xalqlarda mavjud bo'lgan milliy an'analar va qadriyatlar asosida insonni tarbiyalashdir. Faqat shu orqaligina globallashuv davrida inson mavjudligini saqlab qolish mumkin.

Ayni paytda, globallashuv davr, barcha fuqarolarida shakillantirish zarur bo'lgan, umuminsoniy qadriyatlar ham mavjud bo'lib bulardan birinchisi rostgo'ylikdir, aynan rostgo'ylik o'zaro aloqaning asosini tashkil etishi lozim. Rostgo'ylik jamiyatdagi barcha aloqalarni biriktiruvchi asos, poydevor bo'lib xizmat qilishi zarur.

Globallashuvning raqobat muhitida yashash uchun zarur bo'lgan ma'naviy fazilat mehnatsevarlikdir. Hozirgi davr ishlab chiqarishdagi raqobatiga birdosh berish uchun murakkab vaziyatlarda, turli qarama-qarshiliklarni yengib o'tish va o'zining fikrlarini o'tkazish uchun katta mashaqqatli mexnat talab qilinadi.

Hoziri davrda biror bir korxonaning rivojlanishi, raqobatbardoshligi va umuman yutuqlariga sabab bo'luvchi yana bir umuminsoniy fazilat u yerda faoliyat yuritayotgan xodimlarga, do'stlarga va umuman insonlarga nisbatan adolatli bo'lishdir. Bu fazilatlar maktabgacha va maktab yoshidagi ta'limdan shakillantirib borilishi shart.

Ko'pincha, o'quvchilar tarbiyasining eng faol davri bo'lgan uch-to'rt yoshligi ularga e'tiborsizlik bilan o'tkazib yuboriladi, bunga ota-onalarning boalarni kichik yoshda qanday tarbiyalash zarurligini bilmasligi ham sabab bo'ladi. "Ko'p yillik ilmiy kuzatish va tadqiqotlar shuni ko'rsatdik, inson o'z umri davomida oladigan barcha informatsiyaning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda olar ekan. Bolaning ongi asosan 5-7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo'lsak, aynan shu davrda uning qalbida oiladagi muhit ta'sirida ma'naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo'la boshlaydi."

Hozirgi davrda avvalgiga nisbatan, bu yoshda o'quvchilarning axborotni qabul qilish, o'zlashtirish faoliyati tezlashgan bo'lib asosiy amaliy fanlar to'g'risida tushunchalar berish mumkin. Maktabgacha ta'limning tayyorlov guruhlarida va kichik maktab yoshdagi o'quvchilarni ko'pincha o'rgatilinayotgan narsaga qiziqmasligini guvohi bo'lamiz. Bizning fikriizcha, bu yoshdagi o'quvchilarga o'qishni o'rgatishdan ko'ra, qanday qilib o'qish yo'llarni uqdirish lozim. O'quvchilarda o'qish qobiliyati va tafakkurini shakllantirish, ularga berilgan materialni eslab qolishdan ko'ra ko'proq samara beradi. Maktab va professional ta'lim muassasalaridagi tarbiyaning natijasida esa o'quvchilar tez muloqotga kirisha oladigan, insonni ardoqlaydigan, ko'p o'qiydigan, bo'layotgan voqea hodisalarni qiziqib kuzatib, ular haqida fikr bildiradigan, milliy qadriyatlarni xurmat qiladigan va eng muhimi o'z mustaqil fikriga ega bo'lib, boshqalarni gapini takrorlaydigan bo'lmasdan tugatishi kerak.

Umumiy ta'limda globallashuvning sivilizatsiyalar o'rtasidagi munosabatlarni kuchayishini nazarda tutgan holda, tarix, geografiya va ijtimoiy fanlarni o'qitishga e'tiborni kuchaytirish zarur. Bu mamlakatlar tarixi, iqtisodiy yo'nalishlari, ijtimoiy hayoti haqida chuqurroq ma'lumotlar berish orqali o'quvchilarni boshqa mamlakatlar munosabatini to'g'ri shakllantirish mumkin.

Globallashuv davrida oliy ta'lim oldida quyidagi masalalarni hal qilish muammosi turibdi:

1. Oliy ta'limni baynalminallashtirish, ya'ni talabalar va ilmiy xodimlar aloqalarini yanada rivojlantirib borish, birgalikda tadqiqot ishlari olib borish, simsiz axborot tizimini o'rnatish, yetakchi universitetlarga tenglashib borish;

2. Global muammolarni hal qilish bilan birgalikda o'z milliy taraqqiyotiga oid muammolarni o'z vaqtida hal qilib borish;

3. Taraqqiy topgan va ilm fan sohasida global yutuqlarga ega davlatlar oliy o'quv yurtlari bilan muntazam aloqada bo'lish va bu aloqa natijalariga asoslangan yangiliklar yaratish;

4. Yoshlarga ta'lim jarayonida global bozorning salbiy natijalari bo'lgan global migratsiya, kriminal iqtisod, global jinoyatlar haqida tushunchalar berib borish, talabalar o'rtasida bu haqida ilmiy-nazariy konferensiyalar tashkil etish;

5. Hozirgi davrda xo'jalik yuritish yoki fermer xo'jaliklari faqat oziq-ovqat maxsulotlari yetishtirish maqsadida tabiiy o'simliklar va mikroorganizmlarni yo'q qilib yubormaslik va shu tariqa tabiatga xalaqit berishlarini oldini olish;

6. Aholining tabiiy resurslar va ayniqsa qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi fermerlarning ekologik bilimlarini oshirib boruvchi, ekotizm ya'ni tabiatni asrash orqali insonni asrab qolishga oid bilimlar turkumini ishlab chiqish;

7. Ta'lim tizimiga ekologiya fanini kiritish, shuningdek, barcha ishlab chiqarish va sanoat korxonalarida, davlat muassasalarida ekologik ma'rifatni targ'ib qiluvchi manbalar yaratish;

Hozirgi kunda O'zbekiston milliy ta'lim tizimida olib borilayotgan islohatlar aynan global davri talablari asosida yaratilgan. Bizning fikrimizcha bu iloxotlarni amalga oshirishda barcha ta'lim tizimi xodimlari birdek qatnashganida yanada ko'proq samaraga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. "Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" Toshkent. "Sharq yulduzi" 2009 yil №Howard M. America and the World. St. Louis: Washington University. The Annual Lewin Lecture, 5 April 1984. P.6.

2. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T. "Ma'naviyat"2008,116,53
3. Shomurotov, S. S. O. (2021). The Need for Formation of Knowledge on the Effective Use of Water Resources in Young People in the Process of Globalization. (in the Example of the Aral Sea). International Journal of Human Computing Studies, 3(2), 89-91.
4. SHOMUROTOV, S. S. O. (2021, April). FIRST STEPS FOR MODERNIZATION OF WATER FARMING IN THE REPUBLIC: ACHIEVEMENTS AND CHALLENGES. In Euro-Asia Conferences (Vol. 4, No. 1, pp. 152-155).
5. Shomurotov, S. S. O. (2021, February). Some Environmental Problems Related To Land And Water Resources In Uzbekistan. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 39-41).
6. SHOMUROTOV, S. S. O. Construction and Changes in Canals and Pumping Stations in Uzbekistan. JournalNX, 7(1), 262-266.
7. Шомуротов, Ш. (2021). Историческое значение реформ, осуществляемых в водной системе Узбекистана. Общество и инновации, 2(3/S), 458-465.
8. Шомуротов, Ш. (2021). Ўзбекистон сув хўжалиги тизимида амалга оширилган ислохотларнинг тарихий аҳамияти. Общество и инновации, 2(3/S), 458-465.
9. Shomurotov, S. S. O. (2022). O 'Zbekistonda Suvdan Foydalanuvchilar Uyushmalarining Tashkil Qilinishi Va Faoliyatida Yuzaga Kelayotgan Muammolari. Miasto Przyszłości, 29, 216-220.
10. Shomurotov, S. S. O. (2022). Measures Taken to Develop the Irrigation System in the Country. Miasto Przyszłości, 29, 207-209.
11. Abduljalilova, M., & Solijonova, Z. (2023). DARS JARAYONIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH-MATEMATIK TA'LIMNI YANGICHA TASHKIL QILISHNING ASOSI SIFATIDA. Conferencea, 90-93.
12. Abduljalilova, M. (2023). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QISH DARSLARIDA ANVAR OBIDJON IJODIY NA'MUNALARINI O 'RGANISHNING AMALIY AHAMIYATI. INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS, 2(22), 17-21.
13. Abduljalilova, M. (2023). THE PRACTICAL SIGNIFICANCE OF STUDYING THE CREATIVE EXAMPLES OF ANVAR OBIDJAN IN PRIMARY CLASS READING LESSONS. Science and innovation, 2(B11), 574-576.
14. Abduljalilova, M., & Zaxro, A. (2023). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARIDA SAMARALI O 'QISH KO 'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2(20), 16-19.
15. Abduljalilova, M. (2023). USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN SOLVING TEXT PROBLEMS. International journal of advanced research in education, technology and management, 2(12).
16. Ikramovna, I. S., & Abduxalilqizi, A. M. (2023). A Worldwide Picture Of Amir Temir's Image. Journal of Positive School Psychology, 1238-1243.
17. Ahmad, A. A. (2021). The Interpretation of Agricultural Words in" Baburnama". JournalNX, 7(12), 116-118.
18. Amini, A. (2023). SHIMOLIY AFG'ONISTON O 'ZBEKLARI NUTQIDAGI DEHQONCHILIKKA OID HARAkat FELLARINI IFODALOVCHI BIRLIKLAR. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 4(1), 9-15.
19. Amini, A. (2023). DEHQONCHILIKKA OID MAQOLLARNING SEMANTI K TADQIQI. Молодые ученые, 2(11), 123-128.

20. Ahmad, A. A. (2022). SHIMOLIY AFGONISTON OZBEKLARI NUTQIDA DEHQONCHILIK ASBOBLARI NOMLARI VA ULARNING LISONIY TALQINI. *Science and innovation*, 1(B2), 485-490.
21. Shoirakhon, K. (2023). The Artistry of Alisher Navoi's work "Nazm Ul-Javohir". *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 403-408.
22. Shoirakhon, K. (2023). The Use of Rhyming Arts in Alisher Navoi's Work Nazm Ul Javohir. *Journal of Advanced Zoology*, 44.
23. Zohidova, D., & Xo'jayeva, S. (2024, February). "NAZM UL-JAVOHIR" RUBOIYLARINING QOFIYA XUSUSIYATLARI. In *Konferensiyalar| Conferences* (Vol. 1, No. 5, pp. 96-102).
24. Shoirakhon, K. (2023). THE METRIC CHARACTERISTICS OF ALISHER NAVOI'S WORK «NAZM UL-JAVOHIR». *Gospodarka i Innowacje*, 42, 475-480.
25. Bakhodirovna, R. N. (2024). About Some Features of Authentic Text Materials in Teaching a Foreign Language. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 5(1), 45-49.
26. Rakhmanova, N. (2023). LANGUAGE AND CULTURE: INVESTIGATE THE CONNECTION AMONG LANGUAGE AND CULTURE, ANALYZING HOW LANGUAGE REFLECTS AND SHAPES SOCIAL STANDARDS, VALUES, AND PERSONALITIES. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(31).
27. Isakova, Z. Z., & Rakhmonova, N. B. (2021). The expressing value attitude with the help of paralinguistic methods. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 1209-1213.
28. Abdulhamidov, S. (2023). CAUSATIVITY FROM THE POINT OF VIEW OF THE LINGUOCOGNITIVE ASPECT. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 2(23), 8-11.
29. Abdulhamidov, S. (2023). BASIC PRINCIPLES AND PROCEDURE FOR STUDYING CAUSATIVE CONSTRUCTIONS IN MODERN LINGUISTICS. *Наука и технология в современном мире*, 2(19), 19-22.
30. Xusnitdin o'g'li, S. A. (2023). ISSUES OF CREATING A LINGUISTIC IMAGE OF THE WORLD. *Gospodarka i Innowacje*, 37, 44-46.